

JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQIDA PROSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI

Xudaynazarova Uldaulet Muratovna

Qoraqolpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoiy jazolarning liberallashtirilishi bo'yicha Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga o'zgartishlar kiritilgandan so'ng protsessual majburlov choralari va ehtiyot choralari qo'llash muammolari atroflicha, ilmiy-nazariy jihatdan har tomonlama tadqiq etilib, rivojlangan davlatlardagi jinoyat ishlari bo'yicha ayblanuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan ehtiyot choralari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Protsessual majburlov choralari, ehtiyot choralari, majburiy keltirish, ushlab turish, qamoqqa olish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, lavozimdan chetlashtirish, mol-mulkni xatlash.

Xalqimizning bosh vazifasi ijtimoiy adolatga to'la asoslangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish ekan, «qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi».

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiya»sida shaxs huquqlarini himoya qilishga, jumladan jinoyat ishlarini yuritishda himoya huquqini ta'minlashga oid bir qancha normalar mavjud. Chunonchi, mazkur Deklaratsiyada «Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega» (8-modda) [1].

Shubhasiz, ehtiyot choralari adolatga erishish maqsadlarida qo'llaniladi. Adolat insonning tub hayotiy zaruratidir. Shu sababli inson va uning qadriyati har qanday davlat majburlovida, shu jumladan ehtiyot choralari qo'llanishida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyat sodir etilgani yoki uni sodir etishga tayyorgarlik ko'rilayotgani to'g'risida xabarni tekshirish va tegishlicha jinoyatni aniqlash, unda aybli shaxslarni fosh etish demokratik huquqiy davlat organlarining muhim vazifalaridan biridir. Jinoyat ishini ko'zg'atish, surishtiruv va dastlabki tergov yuritish, shuningdek ishni sudda mazmunan hal etish bir qator chora-tadbirlar ko'rish bilan bog'liq. Shu jumladan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud shaxsning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq majburlov choralari qo'llashiga to'g'ri keladi.

Jinoyat prosessida qo'llanadigan majburlov choralari qonunning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy majburlov choralarning turi sifatida faqat qonunda ko'rsatilgan hollarda, shaxsga nisbatan ishontirish kor qilmagan chog'dagina qo'llanishi mumkin. Majburlov choralarini «iqtisod» qilish taomili jinoyat prosessiga ham taalluqli. Majburlov deyarli barcha hollarda jismoniy kuch ishlatishni emas, shaxsning xohishiga qarshi, uning manfaatlariga zid ravishda ko'riladigan chora-tadbirlardan iborat. Ayblanuvchi va gumon qilingan shaxslarning xat-yozishmalariga hib solish, tintuv vaqtida eshikni yoki qulfni buzish ham o'z mohiyatiga ko'ra majburlov choralari qatoriga kiradi. Hatto, sud zalidan chiqarib yuborish majburlov xarakteriga ega. Bu haqda ko'p mualliflar alohida ta'kidlaydilar [2].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga muvofiq, majburlov choralariga quyidagilar kiritilgan:

1. Ushlab turish 27-bob
2. Ehtiyot choralari 28-bob
3. Boshqa jinoyat- protsessual majburlov choralari 29-31-boblar [3].

Jinoyat-protsessual majburlov jinoyat ishlarining muvaffaqiyatli va to'sqinliksiz yuritilishi maqsadida qo'llaniladi, u jinoyatdan jabr ko'rganlarning huquqlarini himoya qilishga yo'naltiriladi. Aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligini ta'minlash uchun jinoyat-protsessual qonunchilikda protsessual majburlov choralarini qo'llash asoslari, tartibi qat'iy tarzda belgilab qo'yilgan.

Jinoyat-protsessual majburlov choralarini shartli tarzda shaxsga ko'rsatiladigan ta'sir xarakteri, qo'llanish subyektlari huquq va erkinliklarni cheklash darajasiga ko'ra quyidagi tasnifini keltirish mumkin.

I. Majburlov xarakteriga ko'ra:

- a) jismoniy xarakterdagi jinoyat-protsessual majburlov choralari: ushlab turish, qamoqqa olish, majburiy keltirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish;
- b) mulkiy xarakterdagi jinoyat-protsessual majburlov choralari: garov, mol-mulkni xatlash, pul undirish va jarima solish;
- d) axloqiy xarakterdagi jamoat birlashmasi va jamoaning kafilligi, munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat, shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi va jamoaning kafilligi, harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv, voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish, lavozimdan chetlashtirish.

II. Qo'llanish subyektlariga ko'ra:

- a) faqat gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan jinoyat-protsessual majburlov choralari: ushlab turish, ehtiyot choralarning barcha turlari, lavozimdan chetlashtirish, mol-mulkni xatlash;
- b) gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan, lekin boshqa shaxslarning mulkiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jinoyat-protsessual majburlov choralari: garov, mol-mulkni xatlash;

d) faqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarga nisbatan qo'llaniladigan jinoyat-protsessual majburlov choralari: majburiy keltirish;

e) jinoyat sudlov ishlarining barcha ishtirokchilari hamda boshqa shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jinoyat-protsessual majburlov choralari: pul undirish va jarima solish.

III. Huquq va erkinliklarning cheklanishi darajasiga ko'ra:

a) insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq bo'lgan jinoyat-protsessual majburlov choralari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasidagi erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlarini cheklovchi ushlab turish, qamoqqa olish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish choralari; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasidagi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tish va O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketish huquqlarini cheklovchi munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat chorasi; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65- moddasidagi xususiy mulkning daxlsizligi huquqlarini cheklovchi garov, mol-mulkni xatlash choralari; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasidagi mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqlarini cheklovchi lavozimdan chetlashtirish chorasi;

b) insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashga bevosita bog'liq bo'lmagan jinoyat-protsessual majburlov choralari: boshqa barcha turdagi jinoyat-protsessual majburlov choralari.

Hech qaysi davlatning qonunchiligida Jinoyat protsessual kodeksi Modelida taklif etilgan ehtiyot choralari chegaralaridan tashqariga chiqilmagan. Qamoqqa olish, garov, munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat (ko'pgina davlatlarda ketib qolmaslik to'g'risida tilxat), harbiy xizmatchini qo'mondonlik kuzatuvi ostiga olish va voyaga yetmaganlarni kuzatuvga topshirish choralari barcha davlatlar Jinoyat protsessual kodekslaridan o'rin olgan. Jamoat birlashmasi va jamoat kafilligi tarzidagi ehtiyot chorasi faqat O'zbekiston Respublikasi, uy qamog'i tarzidagi chora esa Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog'iston Respublikalari Jinoyat protsessual kodekslarida qabul qilingan. Lavozimdan chetlashtirish chorasi O'zbekiston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari va Rossiya Federatsiyasi Jinoyat protsessual kodekslarida «boshqa protsessual majburlov choralari» qatorida ko'rsatilgan, Jinoyat protsessual kodeksi Modelida esa u ehtiyot choralari ro'yxatiga kiritilgan. Bizningcha, lavozimdan chetlashtirish masalasi Jinoyat protsessual kodeksi Modelida to'g'ri hal etilgan, chunki u faqat ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan, xuddi ehtiyot choralari kabi uning kelgusidagi harakatlarini tartibga solish va jinoyat sudlov ishlari oldidagi vazifalarni hal etishga sharoit yaratish uchun qo'llaniladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining «Hukmning mulkiy undirishlar to'g'risidagi qismi ijrosini ta'minlash» to'g'risidagi 35-

bobi ham prosessual majburlov choralari ro'yxatiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir [4].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat protsessual kodeksi 110-moddasi [5], Belarus Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 119-moddasi [6], Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 112-moddalarida [7] ehtiyot chorasi qaysi organ tomonidan qo'llangan bo'lsa, faqat shu tartibda uni o'zgartirish yoki bekor qilish mumkinligi ta'kidlangan. Jinoyat protsessual kodeksi Modelining 187-moddasi esa sud tomonidan qo'llanilgan ehtiyot chorasi sudga qadar ish yuritishda jinoiy ta'qib tomonidan organi bekor kilinishi yoki o'zgartirilishi lozimligi taklif etilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 240-moddasiga ko'ra qo'llanilgan ehtiyot chorasi kim tomonidan qo'llanganligidan qat'iy nazar, jinoyat prosessining har qanday bosqichida bekor kilinishi, o'zgartirilishi mumkin. Shaxsning daxlsizligiga rioya etish uchun ehtiyot chorasiga zarurat qolmaganda, u darhol bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi shart. Nazarimizda, bizning qonunchiligimizdagi ushbu qoida boshqa davlatlar qonunchiligidan insonparvarligi bilan ustunlik qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. -Т.: Адолат, 2004. -Б.32-33.
2. Громов Н.А. Уголовный процесс России. Учебное пособие. -М.: Юристъ, 1998. -Б. 185
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. 22.09.1994 <https://lex.uz/acts/-111460>
4. Тўлаганова 13. Жиноят процессила зағнёт чораларининг қўлланиши муаммолари. Алина. 2005-6.13.
5. “Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18.12.2001.
6. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь. 16 июля 1999 г.
7. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года